**Fan:**Tabiatshunoslik
**Mavzu:**Donli ekinlar
**Maqsad:**
**Ta`limiy:**O`quvchilarda donli ekinlar,jumladan,bug`doy,sholi va makkajo`xori,ularni parvarish qilish haqida bilim va ko`nikmalarini shakllantirish.
**Tarbiyaviy:**Rizq-ro`zimiz bo`lgan un va guruch olinadigan bug`doy va sholini yetishtirishda kishilarning ko`p mehnati sarflanishi haqida ma`lumotlar berish.
**Rivojlantiruvchi:**donli ekinlar,jumladan, bug`doy va sholi o`simligini, yetishtirish haqida o`quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish.
**Dars turi:**Yangi bilim beruvchi
**Dars jihozlari :** bug`doy va sholi,makkajo`xori,arpa,suli,no`xat,mosh,loviya donlaridan namunalar,donli ekinlarning  o`simliklari tasvirlangan rasmlar,darslik.
**Dars metodi:**No`ananaviy,klaster,interfaol metodi,amaliy ishlar o`tkazish

## Darsning borishi

**I.Tashkilliy qism.**
a)salomlashish
b)davomatni tekshirish
d)darsga tayyorgarligini tekshirish.
Bug`doy,sholi va  makkajo`xori donlari namunalarini o`quvchilarga ko`rinadigan qilib stol ustiga joylashtirish,ularni ekish,parvarish qilish va hosilini yig`ish tasvirlangan rasmlarni osib qo`yish.
O`qituvchi:-Bolalar hozir qanday dars ekanligini ushbu topishmoqli she`rdan bilib olamiz:

U bizning onamizdir,
Asramoq burchimizdir.
Undan biz o`rganamiz
Atrofdagi olamni.
Quyosh,oy yulduzlarni
Kun vat un almashihsi
To`rt fasl quvlashihsi
Jonli,jonsiz jismni
Unga g`amxo`r bo`lishni
Aytingchi mening fikrim
Qaysi fanda mujassam?
(Tabiatshunoslik)

**II.O`tilgan dasrni takrorlash.**

O`qituvchi o`tilgan darsni mustaghkamlash maqsadida har bir partaga tabiiy o`simliklar rasmidan tarqatadi.O`qituvchi birin-ketin oldinda tayyorlab qo`yilgan 5ta savolni o`qiy boshlaydi.O`quvchilar tayyor bo`lsa savolga javob beradi.

O`quvchilar uchun ssavollar:

1.O`simliklarning nomi va ular qayerlarda uchraydi?
2.Bu o`simliklarning barglari va gullari qanaqa?
3.Bu o`simliklarning qanday foydali tomonlari bor?
4.Zararli tomonlari bormi?qanday?
5.Nima uchun bu o`simlik tabiiy o`simlik hisoblanadi.

# O`simliklar




1)Ariq bo`ylarida o`sadigan o`tlarga ta`rif beriladi.
2)Tog` yonbag`irlarida qanday daraxtlar o`sadi?


Yalpiz
Sachratqi
zubturum
Ariq bo`yida
ayiqtovovon
Qoqio`t
Ajriq




**III.Yangi mavzu bayoni.**

O`qituvchi yangi dars mavzusini e`lon qilib,o`quvchilarga quyidagi savollar bilan murojat qiladi.

1.Qanday donli ekinlarni bilasiz?

2.Bug`doydan nimalar tayyorlanadi?

3.Biz kundalik hayotimizda qaysi donli ekinlarni iste`mol qilamiz?

4.Vatanimiz asosiy boyligi nima?

5.Paxtadan nimalar olinadi?

O`quvchilar bir nechtasi bu savollarga javob beradilar.

Yangi mavzu bo`yicha g`o`za qanday qismlardan (ildiz,poya,barg,gul,ko`sak)iborat ekanligi,bu qismlar,har birining vazifasi tushuntirib beriladi.
G`o`ani qanday parvarish qilish,uning hosili-paxta yig`im-terimi qanday tashkil etilishi so`zlab beriladi.
Monitoring yordami bu jarayonlar ko`rssatiladi.
Mehnat qilsang don bo`lur
Donni eksang non bo`lur

Donli ekinlar qanday umumiy xususiyatga ega ekanligi,ularga qaysi o`simliklar kirishi, bug`doy,sholi va makkajo`xori qismlari,ularni yetishtirish,hosilidan foydalanilishi batafsil bayon qilinadi.Bug`doy yumshoq va qattiq bug`doylarga bo`linishi,yumshoq bug`doy kuzda,qattiq bug`doy esa bahorda ekilishi tushuntiriladi.Shu bilan bir qatorda boshqa donli arpa,suli,mosh,no`xat,loviya haqida ham ma`lumot beriladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

Doskaga quyidagi shakl chiziladi va o`quvchilarga bo`sh kataklarga paxtadan olinadigan mahsulotlar yozish topshiriladi:




O`quvchilarning javobi o`qituvchi tomonidan to`ldiriladi. “Zig-zag” metodi asosida paxtani qanday parvarish qilish,uning hosili yig`im-terim qanday tashkil etilishini ko`rsatib beriladi.

**Ekiladi → o`sib chiqadi → yagana qilinadi → ishlov beriladi → ko`sakka aylanadi → ochila boshlaydi →yig`im-terim boshlanadi → punktlarga jo`natiladi → qayta ishlashga jo`natiladi → ajratib olinadi → ip yigiriladi → gazlamalar to`qiladi → kiyimlar tikiladi**

**BBB metodidan foydalanib,donli ekinlar haqida ma`lumotlar mustahkamlanadi.**

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
| --- | --- | --- |
| Bug`doy, makkajo`xori Bug`doydan qanday mahsulotlar tayyorlanishini | Sholini qanday yetishtirilishini Sholidan qanday mahsulot olinishini Makkajo`xori qanday maqsadlarda yetishtirilishini Makkajo`xorining inson uchun foydasini | Sholini yetishtirishni bildim Guruch olinishi Donidan oziq sifatida foydalanilishini o`zbeklarning eng sevimli taomi osh pishirilishini. Inson va chorva mollari,tovuqlar uchun ozuqa sifatida,unidan non va makaron mahsulotlari tayyorlanishini. |

O`quvchilarning javobi o`qituvchi tomonidan to`ldiriladi.
Darslikda keltirilgan amaliy ishlar bajarilishi tushuntiriladi.
Darsda faol qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

**V. Uyga vazifa:**
O`quvchilarga darslikdagi mavzuni o`qib chiqish,savollarga javob toppish,topshiriqlarni bajarish beriladi.